

## TA'LIMDA O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMO, TAHLIL VA YUTUQLAR

**Bozorov Aziz Ablokulovich**

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari*

*Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi*

*Qurollanish va otish sikli katta o'qituvchisi, podpolkovnik*

**Annotatsiya:** *Bugun fan va ta'limda insoniyat juda ilgari ketdi. Bugungi kunda axborotlashgan asrda intellektual kasblar nufuzi tobora ortib bormoqda. Insonni bu salohiyatga olib kelish, uning aql imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ta'lim tizimining eng muhim vazifasidir. Vaholanki ta'limi taraqqiy etmagan mamlakatlar iqtisodiyoti ham taraqqiy etmaganligini butun dunyo mamlakatlari ko'rib kelyapti. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimini joriy etmasdan turib, zamon talabiga mos kadrlarni yetishtirib bo'lmaydi. Sinergetika metodologiyasi tizimli yondashuv asosida aynan zamonaviy ta'lim uchun asos bo'la oladigan, integratsion ta'limni targ'ib etayotgan muhim yo'nalishdir. Maqolada targ'ib etilayotgan zamonaviy ta'limga tizimli yondashuv masalasi sinergetik ta'limning bir qismi sifatida fanlararo integratsiyani, tanqidiy va mantiqiy tafakkurni, doimo rivojlanib borishni, o'z ustida tinimsiz ishlashni, ta'lim jarayonida turg'unlikka yo'l qo'yib bo'lmaslikni isbotlab beradigan zamonaviy ta'limga mos keladigan yondashuvdir.*

**Kalit so'zlar:** *tizimli tahlil, zamonaviy ta'lim, sinergetik metodologiya, fan va ta'lim, nazariya va amaliyot.*

### **KIRISH**

Bugungi kunda deyarli barcha sohalarda tizimli yondashuv, tizimli tahlil tushunchalari kirib keldi. Tizimli tahlil, tizimli yondashuv masalasi mantiqiy va tanqidiy tafakkur tarzi bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham bugungi davrning eng dolzarb masalalari sarasiga kiradi. Bugun zamonaviy ta'limsiz taraqqiyotga erishish juda mushkul. Bugun O'zbekiston iqtisodiyoti, ta'limi rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimidan kamida ancha yillar orqada qolib ketgani tan olishimiz kerak bo'lgan achchiq haqiqatdir. "Yuksalish" umummilliy harakatini O'zbekistonning jahon reytinglaridagi o'rni haqida umumiy ma'lumotiga ko'ra mamlakatimiz jahondagi 203 davlat orasida 2019 yilgi ta'lim tizimining ta'sirini o'lchash va baholash bo'yicha xalqaro ma'lumotlar bazasida 79-o'rin, Farovonlik va barqaror iqtisodiy rivojlanish indeksi bo'yicha 101-o'rin, Inson taraqqiyoti indeksi bo'yicha 105-o'rinda qayd etiladi. Bugungi kunda (2021) ta'lim darajasi bo'yicha 71 o'rinda, Qirzistondan ham bir pog'ona pasdda turganligi ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun yanada katta kuch, mehnat, yangicha yondashuvlar zarurat ekanligini anglatadi.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Bugungi kunda ta'lim tizimimizda "STEAM fanlar", "STEAM fanlar"ni chuqurlashtirib o'tilishi kabi masalalar kirib keldi. "STEAM fanlar" nima? "STEAM fanlar"ni o'qitish

nazariyasi deganda qanaqa o'qitish nazarda tutiladi? degan savol tug'ilishi tabiiydir. STEAM inglizcha so'zlarning bosh harflari qisqartmasi, ya'ni:

Science – ilm-fan Technology– texnologiya Engineering – muhandislik Arts – san'at Mathematics – matematika

“STEAM fanlar” bu aynan bir necha fanlarni integratsion uyg'unligidan tashkil topgan, nazariya va amaliyotni birlashtirgan, ta'lim jarayonida amaliy yondashuvni qo'llaydigan mantiqiy umumlashmadir. Aslida O'zbekiston xalqi, mutafakkirlari azaldan ko'pgina sohalarni mantiqiy uyg'unlikda o'rganishga, tafakkur qilishga harakat qilib kelgan. Bizning allomalarimiz, ayniqsa, o'rta asr sharq mutafakkirlarining barchasi qomusiy bilim egalari bo'lganligi bunga misoldir.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Avvalo shuni ta'kidlash o'rinliki, ta'lim jarayoni ham yaxlit bir sistema sifatida tizimli tahlil obyekti bo'la oladi. Tizim tushunchasiga ko'plab ilmiy, falsafiy adabiyotlarda ta'rif berilgan va barchasining mohiyati o'zaro umumiy xarakterga ega. Tizim – bu elementlardan tashkil topgan obyekt yoki obyektlar yig'indisi.

Respublikamizda bugungi kunga kelib talaba yoshlarni qo'llab quvvatlash, hatto, talabalar turar joylari, ijara masalasigacha davlat siyosati darajasida o'ylanayotgani bejizga emas [1]. Bunday islohotdar juda ko'p amalga oshirilmoqda. Asosiysi, barcha harakatlar ta'lim rivojiga qaratilmoqdaki, ularni qabul qilishda, anglab yetishda biroz sustkashlikka yo'l qo'yilayapti, nazarimizda.

Tizimli tahlilning bilish – mental funksiyasi, faoliyat davomida yuzaga kelgan holatning mohiyatini anglash uchun, boshqaruvni amalga oshirishda qo'llanilayotgan usullarni, yondashuvlarni, qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda boshqaruv mentalligini o'zgartirish uchun xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayoniga tizimli yondashuv nazariy-metodologik, ilmiy- pedagogik, ilmiy-kasbiy mazmun berib, ta'lim jarayonining samara-dorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Bu o'z navbatida ta'lim-tarbiya sohasida barkamol shaxs tarbiyasini amalga oshirish uchun zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, fan-texnika yutuqlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etib, jahon talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash, ta'lim-tarbiya tizimini milliy ehtiyoj va manfaatlardan kelib chiqqan holda faoliyatni takomillashuvini taqozo etadi.

Zamonaviy ta'lim jarayoniga tizimli yondashuvning zaruriyati shundaki, ushbu tahlil usuli bugungi kunda sohada samarali tadqiqot usullarini ishlab chiqilishida va jamlanishida, shu bilan bir qatorda amalda qo'llanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonini bilishda, uning xususiyatlari, jamiyat rivoji uchun ahamiyatlilik darajasini aniqlashda, tizimni tashkiletgan har bir ta'lim bosqichi yoki boshqariladigan quyi sistemalarni kelajagini prognoz qilishda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqot usulidir.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa qilib mulohaza yuritadigan bo'lsak:

**Birinchidan**, zamonaviy ta'limga tizimli yondashuv bugungi kunda barcha ta'lim bosqichlarini integratsion faoliyatini amalga oshirishda muhim sanaladi. Ta'lim jarayonidagi asosiy muammolarni aniqlab, ularning boshlang'ich nuqta-sini topadi va yechimlarini taklif etadi.

**Ikkinchidan**, tizimli yondashuv ta'lim jarayonida har bir innovatsiyani qo'llashda tanqidiy va mantiqiy tafakkur asosida yondashib, milliy ta'lim tizimiga moslashtirishda nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi.

**Uchinchidan**, zamonaviy ta'limga tizimli yondashuv bugungi zamon talabiga mos keladigan ta'lim tizimini ishlab chiqish, rivojlangan mamlakatlar ta'limini import qilishda tahliliy yondashish hamda milliy ta'lim tizimiga joriy etishda eng asosiy va muhim yondashuv hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 11 martdagi 132-son qarori.
2. A.A. Bogdanov. Tektologiya: umumiy tashkiliy fan. Uchinchi nashr, qayta ko'rib chiqilgan va kengaytirilgan. - M., 2019. // Elektron nashr: Gumanitar texnologiyalar markazi. – 07.10.2010. URL: <https://gtmarket.ru/library/basis/5909>.
3. L. Von Bertalanffi. Umumiy tizimlar nazariyasi: tanqidiy sharh. Tarjimalar to'plamida Umumiy tizimlar nazariyasi tadqiqotlari. M.: - Taraqqiyot, 2019. - b. 520.
4. Moiev N.N. Tizimli tahlilning matematik muammolari. M.: - Nauka, 2011. - b. 488.
5. Ruzieva, K., & Abdurakhmonov, V. (2022). IN THE ENGLISH LINGUOCULTURE THE CONCEPT OF "CHILD" AND THEIR MEANS.
6. Ruzieva, K., & Abdurakhmonov, V. (2022). IN THE ENGLISH LINGUOCULTURE THE CONCEPT OF "CHILD" AND THEIR MEANS.
7. Satvoldievna, U. D., & Qizi, R. K. B. (2020). Linguistic analysis of puns in the English language. *Проблемы современной науки и образования*, (2 (147)), 38-40.
8. Омонова, М. К., & Нурматова, М. М. (2017). ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ПРАВИЛЬНОСТЬ В ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАЖНЕНИЙ В ПИСЬМЕ. *Ученый XXI века*, 93.
9. Bazarova, D. (2022). VARIABILITY OF PHRASEOLOGICAL UNITS. *Science and innovation*, 1(B7), 483-486.
10. Gafurov, B. Z. (2022). Analysis of medical version in texts of advertising of hygiene products in the fight against COVID-19 (on the material of Russian and Uzbek languages). *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*.
11. Gafurov, B. Z. Similarities and differences of segment background options for Russian, Uzbek and English languages. *Monografia pokonferency jnascience, Research, development*, 26, 17-19.
12. Gafurov, B. Z. (2021). Medical terminology in advertising text. *Scientific reports of Bukhara State University*, 5(3), 30-40.

13. Zakirovich, G. B. (2020). Super-segment phonostylistics as the basis for studying the problems of accent variants of Russian nouns. *CREATION OF ETHNOGRAPHIES WITH POPULAR TRADITIONS*, 11(13), 39.

14. Nodira, U. (2022). THE ROLE OF STORY-BASED LEARNING APPROACH IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. *Science and Innovation*, 1(7), 375-378.

15. Yuzboy o'g'li, R. A. (2022). ANTONY JENKINSON'S VISIT TO THE KHANATE OF BUKHARA AND THE LEADING ROLE OF THE KHANATE OF BUKHARA IN TRADE RELATIONS BETWEEN INDIA AND RUSSIA. *PEDAGOGS jurnali*, 19(1), 174-177.

16. Murodullayeva, N. O. (2022). IMPROVING METHODS OF TREATMENT OF OPTIC NERVE ATROPHY IN CHILDREN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(9), 673-678.

17. Oripovna, M. N. (2022). IMPROVING METHODS OF TREATMENT OF OPTIC NERVE ATROPHY IN CHILDREN.